

QAYDNOMA №10
2023-yil 26-aprel kuni soat 14:00 da o'tkaziladigan
ToshPTI Ilmiy Kengashining

QAROR LOYIHASI:

- Kun tartibi:**
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishdagi qarorlarining ijrosi haqida.
Ma'ruzachi: Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova.
 2. ToshPTI klinikasi faoliyati tahlili. Professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari to'g'risida.
Ma'ruzachi: Davolash ishlari buyicha prorektor A.A.Djalilov
 3. Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari to'g'risida.
Ma'ruzachi: Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani A.R.Valiyev
 4. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.
Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.
 5. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.
Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.
 6. Turli masalalar.

Ko'rib chiqildi:

Birinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishdagi qarorlarining ijrosi to'g'risida.

1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishdagi qarorlarining ijrosi to'g'risida ma'lumot va axborot uchun qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va yuqori tashkilotlar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy soha bo'yicha kelayotgan qaror, farmoyish va topshiriqlar tegishli mas'ullar tomonidan ijrosi o'z vaqtida amalga oshirilsin;

Topshiriqlar ijrosi monitoringgi ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan yo'lga qo'yilsin. Ijrosi kechiikkan topshiriqlarni aniqlanib, hal etish va yechimi bo'yicha choralar ko'rilsin.

Ikkinchi masala bo'yicha ma'ruzachi davolash ishlari buyicha prorektor A.A.Djalilov ToshPTI klinikasi faoliyati hamda professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari to'g'risida.

2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Davolash ishlari buyicha prorektor A.A.Djalilov ToshPTI klinikasi faoliyati hamda professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari to'g'risida ma'lumot va ijro uchun qabul qilindi:

Professor o'qituvchilarni davolash-diagnostika faoliyati buyicha institutning barcha kafedralarida ishlar samaradorligi va ilmiy salohiyati oshirilsin;

Xorijiy mutaxassislar klinikaga taklif etilib, ular tomonidan seminar va maxorat darslarni amalga oshirish ta'minlansin;

ToshPTI Klinika xodimlarini xorijiy davolash muassasalarida malakasini oshirishra, tibbiy yo'nalishdagi xalqaro hamkorlikni kengaytirishga hamda tibbiy turizmni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratilsin;

Xorijiy davolash muassasalarida malaka oshirib kelgan xodimlarga o'rganib kelgan yuqori texnologik diagnostik va davolash usullarini joriy etishga imkoniyat yaratilsin;

Respublika viloyatlarida tibbiy Aksiyalar tashkil etilsin;

Klinika institutning asosiy o'quv bazasi ekanligini inobatga olib, talabalar ko'nikmalarini amalda oshirish imkoniyatini yaxshilash maqsadida, kafedralarga institut tomonidan kerakli anjomlar ajratilsin.

Uchinchi masala bo'yicha masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani A.R.Valiyev tibbiy pedagogika va davolash ishi fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari to'g'risida.

3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani A.R.Valiyev tibbiy pedagogika va davolash ishi fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilindi:

Professor-o'qituvchilarning akademik mobilligi bo'yicha ishlar ko'lamini kengaytirilsin. Bunda institut professor-o'qituvchilarni yetakchi xorijiy turdosh oliy ta'lim va davolash muassasalarida malaka oshirishlari, ortirilgan ilg'or tajribani ta'lim jarayoniga va amaliy tibbiyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilsin;

Institut jozibadorligini oshirish, jumladan, ta'lim xizmatlari eksportiga yo'naltirilgan ishlar doirasi institutda olib borilayotgan e'tiborga loyiq ishlar institut veb saytida, kafedralar sahifalarda doimiy ravishda yoritib borilishi ta'minlansin.

Turtinchi masala bo'yicha ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi Sh.I.Ruziev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Saylov komissiyasi raisi Sh.I.Ruziev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Beshinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

6. Turli masalalar.

Kengash raisi
t.f.d., professor:



B.T. Daminov

Kengash kotibi
t.f.d., dotsent:

X.A. Akramova